



XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2021 - yil 31 - dekabr

VI-46-83-11-162-K/21

Uchko‘prik tuman hokimligi

Uchko‘prik tumanining 2022-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda Farg‘ona viloyati hokimligi Moliya bosh boshqarmasi 2021-yil 30-dekabrda 01/01-38/1102-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrda O‘RQ-742-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Uchko‘prik tumani mahalliy byudjetining 2022-yilgi daromadlari 102,4 mlrd so‘m va xarajatlari 207,4 mlrd so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 105,0 mlrd so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3.Uchko‘prik tumanining 2022-yilga tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tumanning tuman byudjetidan 2022-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.Tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me‘yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratma me'yorlari bo'yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda "Davlat moliyasini boshqarish" axborot tizimiga Farg'ona viloyati bo'yicha G'aznachilik boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6.Tuman mahalliy byudjetining 2022-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7.Viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi inobatga olinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8.2022-yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 1,9 mlrd so'm miqdorida belgilansin.

Bunda, viloyat, tuman va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari mablag'larini Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Farg'ona viloyati viloyat byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg'armalari miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmacligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9.Qarorga ko'ra, 2022-yil uchun tuman byudjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 767,0 mln so'mni miqdorda belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin hamda 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10.Quyidagilar:

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 7-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 8-ilovaga muvofiq;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar 9-ilovaga muvofiq belgilansin.

11.O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy

byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar:

yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aksiz solig'i;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

ayrim tovarlarni chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig'imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'imlardan, g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat byudjeti daromadiga o'tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo'yicha ajratmalar va dividendlar;

yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablaglari;

bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlarini xususiyashtirishdan tushgan tushumlar;

Boshqa tushumlar (ushbu bandning "v" va "g" qismlarida nazarda tutilgan daromadlardan tashqari barcha daromadlar, shu jumladan tuman va shahar mahalliy byudjetlarining boshqa tushumlari hamda byudjet tashkilotlari asosiy vositalari sotilishidan tuman va shahar byudjetlariga tushumlar) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to'lig'icha o'tkazilishi;

b) Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o'tkazib berilishi;

v) Quyidagi soliq turlari:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

aylanmadan soliq;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i;

davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlaridan tushadigan tushumlar shahar va

tumanlar byudjetiga to'liqligicha o'tkazib berilishi;

g) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi:

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning barcha shahar va tumanlarda 50 foizi;

yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aksiz solig'idan tushumlarning barcha shahar va tumanlarda 20 foizi;

jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'idan tashqari) Farg'ona shahri va So'x tumanidan tashqari barcha shahar va tumanlarda 50 foizi;

yuridik shaxslar foydasidan soliq bo'yicha tushumlarning faqat Farg'ona shahrida 50 foizi o'tkaziladi;

yuridik shaxslar yer va mol-mulk soliqlag'i hamda suv resurslaridan foydalanganlik solig'idan tushumlarning barcha shahar va tumanlarda 50 foizi;

agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo'lsa, daromadning ushbu turi viloyat byudjetiga o'tkazilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

12. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (Asqarov), tuman Moliya bo'limi (Salimov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (Axmadaliyev) bilan birgalikda 2022-yilgi mahalliy byudjetida belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

13. Belgilansinki:

tuman hokimligi, mas'ul bo'lim va tashkilotlar tomonidan 2022-yilda byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushimini ta'minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratilsin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Axmadaliyev) ma'sul tashkilotlar bilan birgalikda:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o'rnatish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlililar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

Bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsin.

Yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish vazifasi yuklatilsin.

15.Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Axmadaliyev), Kadastr agentligi tuman bo'limi (Zaynutdinov) 2022-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to'lovchilarning mol-mulkleri maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlasinlar.

16.Majburiy ijro byurosi tuman bo'limi (Qunduzov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (Axmadaliyev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

17.Tuman Mahalla va oilani qo'llab-quvatlash bo'limi (Akbarov) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko'rsatsinlar.

18.Qonunning 13-moddasiga muvofiq:

tuman hokimligi choraklar yakuni bo'yicha Qonunning 5-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko'rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag'larning tushish ehtimoli bo'lmasa, Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko'rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan;

tuman hokimligi choraklar yakuni bo'yicha mazkur qarorning 4-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko'rsatkichlari tuman hokimligining faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag'larning tushish ehtimoli bo'lmasa, tuman hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko'rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan murojaat qilishi to'g'risidagi belgilangan tartibga amal qilsinlar.

Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan

tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari tuman Kengashi, tuman hokimligi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga ma‘ulligi belgilab qo‘yilsin.

19.Tuman byudjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar tegishli ravishda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tuman hokimligining takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirish maqsadida qabul qilinadi.

Tuman byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan ob‘ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta‘mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishi belgilab qo‘yilsin.

20.Tuman hokimligi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy byudjetlarning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manba hisobidan amalga oshirilishi qat‘iy belgilab qo‘yilsin.

21.Tuman hokimligi, byudjet mablag‘lari taqsimlovchilari hamda mas‘ul bo‘lim va tashkilotlar:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurish, rekonstruksiya va ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan ob‘ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta‘mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tegishli ravishda majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borsin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlarida ularning natijalarini joylashtirib borilishini ta‘minlasin.

22.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Asqarov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati hamda tegishli bo‘lim va tashkilotlar rahbarlari:

byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta‘minlash;

soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan

zarur chora-tadbirlar belgilash, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

tegishliligi ravishda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari bo‘yicha axborotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta‘minlasin.

23.Tuman hokimligi matbuot kotibi A.Ermatovga mazkur Kengash qarorini hamda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma‘lumotlarni tuman hokimligi “Yangi Farg‘ona” gazetasida shuningdek, rasmiy internet-kanallar va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish tavsiya etilsin.

24.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (Dexqonov) zimmasiga yuklatilsin.

25.Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Tuman hokimi



A.A.Maxmudaliyev

Халқ депутатлари Учқўприк туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-46-83-11-162-К/21-сон қарорига
1-илова

**Mahalliy byudjetlarining daromadlari bo'yicha
2022-yil uchun
BALANSI**

ming so'm			
№	Daromadlar nomi	Ajratma me'yori	Uchko'priktumani
I.	Tartibga soluvchi daromadlar		24 195 000
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	50	24 195 000
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i		
II.	Biriktirilgan daromadlar		40 479 600
	To'liq tuman mahalliy byudjetiga		26 864 000
1	Korxonalar aylanmasidan soliq	100	13 133 000
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	100	1 123 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	100	4 413 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	100	7 951 000
5	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	100	244 000
	Viloyat va tuman mahalliy byudjetlari o'rtasida taqsimlanadigan daromadlar		13 615 600
1	Qurilish materiallari bo'yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	100	333 500
2	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	20	5 994 600

3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	50	1 098 000
4	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i	50	3 232 500
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	50	2 957 000
III.	Mahalliy byudjet daromadlari prognozi		64 674 600
IV.	O'tkazib beriladigan daromadlar		37 759 000
	<i>Aholi soni (ming.kishi) 01.07.2021 holatiga</i>		234
14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo		14 291 000
15	Mobil aloqa xizmatini ko'rsatganlik uchun aksiz solig'i		8 142 000
16	Tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i		15 326 000
V.	Mahalliy byudjetlarning jami daromadlari		102 433 600
VI.	Mahalliy byudjetlarning jami xarajatlari		207 458 213,0
VII.	Transfertlar		105 024 613

Халқ депутатлари Учқўприк туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-46-83-11-162-К/21-сон қарорига
2-илова

**Farg‘ona viloyat mahalliy byudjetlarining xarajatlari
bo‘yicha 2022-yil uchun**

		ming so‘m
Ko‘rsatkichlar		Uchko‘prik tumani
	XARAJATLAR-JAMI	207 458 213
1.	IJTIMOIIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIIY QO‘LLAB- QUVVATLASHGA XARAJATLAR - JAMI	164 739 743
	<i>shu jumladan:</i>	
1.1	Maorif	29 441 297
	- maktabgacha ta’lim	18 015 287
	- umumiy ta’lim	11 426 010
	- kadrlar tayyorlash	0
1.2	Sog‘liqni saqlash	73 901 612
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	4 327 887
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 530 364
	- sport	2 797 523
1.4	Tibbiy ijtimoiy xizmatlar bo‘limi (Yolg‘iz qariyalar uchun oziq-ovqat)	6 024
1.5	Bolali oilalarga va kam ta‘minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	56 972 041
1.14	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	90 882
2.	IQTISODIYO‘TGA XARAJATLAR	13 084 722
	<i>shu jumladan:</i>	
2.3	Obodonlashtirish	10 428 033
2.16	Veterinariya qo‘mitasi	976 689
2.17	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 680 000
3.	MARKAZLASH TIRILGAN INVESTITSIYA LARNI MOLIYA LASH TIRISHGA XARAJATLAR	0
4.	DAVLAT BOS HQARUV ORGANLARINI SAQLASH	9 906 908
	<i>shu jumladan:</i>	
4.1	Davlat xokimiyati organlari	
4.2	Davlat boshqaruv idoralari	9 906 908
5.	FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOS HQARISH ORGANLARINI SAQLASH	5 440 360
6.	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 948 010

7.	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	503 277
6.	ZAHIRA JAMG‘ARMASI	1 956 230
7.	BOSHQA XARAJATLAR	9 878 963
	<i>shu jumladan:</i>	
7.1	Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar	0
7.2	Qabullar uyini saqlash xarajatlari	0
7.3	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	9 878 963
	JAMI MAHALLIY DAROMADLAR	102 433 600
	TRANSFERT	105 024 613

Халқ депутатлари Учқўприк туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-46-83-11-162-К/21-сон қарорига
3-илова

**2022-йил uchun byudjet daromadlarining mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi bo'yicha
ajratma me'yorlari**

foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Korxonalar aylanmasidan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i	Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz soliq	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan yer solig'i	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer solig'i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
1	Uchko'priq tumani	100	50	100		20	100	100	50	100	50	50	50

Халқ депутатлари Учқўприк туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-46-83-11-162-К/21-сон қарорига
4-илова

Tuman mahalliy byudjetining 2022-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming soʻmda

№	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI		102 433 600,0	207 458 213,0
1	Uchkoʻprik tumani	102 433 600,0	207 458 213,0

Халқ депутатлари Учқўприк туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-46-83-11-162-К/21-сон қарорига
5-илова

**Shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2022-yilgi yuqori byudjetdan
ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo
transfertlar miqdorlari**

ming soʻmda

№	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori jami
	JAMI	105 024 613
	<i>shundan</i>	
1	Uchkoʻpriк tumani	105 024 613

Халқ депутатлари Учкўприк туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-46-83-11-162-К/21-сон қарорига
6-илова

**2022-yilda tuman mahalliy byudjetida aylanma kassa mablag'larining yo'l
qo'yiladigan eng kam miqdori**

ming so'mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	767 000,0
	<i>shundan</i>	
1	Uchko'prik tumani	767 000,0

Халқ депутатлари Учкўприк туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-46-83-11-162-К/21-сон қарорига
7-илова

**Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar
bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan
kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar**

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (ming.so‘m)
	Uchko‘prik tumani	1,00	29 000,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.

Халқ депутатлари Учкўприк туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-46-83-11-162-К/21-сон қарорига
8-илова

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

			so'mda
T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2022 yil uchun (so'm)
1	Uchko'priк tumani	1,00	260,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.

Халқ депутатлари Учкўприк туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-46-83-11-162-К/21-сон қарорига
9-илова

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan)	Minimal miqdor 2022 yil uchun (ming.so'm)
1	Uchko'priк tumani	0,70	700,0